

SANOAT KORXONALARIDA RISKLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA ULARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11218949>

Nosirov Muzaffar Tolib o'g'li

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

Menejment" kafedrasi assistenti

muzaffarnosirov1992@gmail.com

Annotatsiya

Tavakkalchilik bu korxonaning kelajagini va iqtisodiy rejalashtirishni bashorat qiladigan jarayondir. Ushbu maqolada korxonlardagi risklarning o'ziga xos jihatlari va ularga ta'sir etuvchi olamillar haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar

risk, ishlab chiqarish, sanoat, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm.

SPECIFIC ASPECTS OF RISKS IN INDUSTRIAL ENTERPRISES AND FACTORS AFFECTING THEM

Annotation

Risk is a process that predicts the future of the enterprise and economic planning. This article discusses the specific aspects of risks in enterprises and the factors affecting them.

Key words

risk, production, industry, organizational-economic mechanism.

KIRISH

Risk mohiyati va mazmunini ko'rib chiqar ekanmiz, tadbirkor, ishbilarmon va menejerning muvaffaqiyati riskka munosabatni tushunishiga sezilarli darajada bog'liqligini isbotlashga endilikda hojat qolmagan. Bu muammo alohida qiziqish uyg'otadi va har tomonlama o'rganishga arziydi.

Tadbirkorlik faoliyati va biznesda risk boshqaruv nazariyasi hamda amaliètining muhim tarkibiy qismi sifatida, ayniqsa, ushbu eng jiddiy muammoning kam o'rganilganligini hisobga olsak, tamomila mustaqil nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Risk vaziyatlarida boshqaruv masalalari bo'yicha manbalar ro'yxati va mahalliy adabiètda uni baholash darajalari anchayin qashshoq, fundamental tadqiqotlar deyarli yo'q. Uzoq vaqt mobaynida mamlakat xalq xo'jaligini asosan ekstensiv rivojlantirishga mo'ljal olish, boshqaruvning

haddan tashqari yuqori markazlashuvi, boshqaruvning ma'muriy usullari hukmronligi noaniqlik va riskni hisobga olish masalasini qo'yishga imkon bermagan. Bundan tashqari, —taqchillik iqtisodida tadbirkorda risk qilish, mavjud ishlab chiqarish texnologiyasini o'zgartirishga xohish va qiziqish bo'limgan. Bundan xo'jalik va ijtimoiy risk muammosiga barqaror qiziqish yo'qligining sabablari tushunarli.

Risklar muammosiga bag'ishlangan iqtisodiy adabiètlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilar o'rtasida tadbirkorlik riski ta'rifiga nisbatan yagona fikr mavjud emas⁷¹.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotda sifat menejmenti tavakkalchilikni boshqarishni takomillashtirishga doir fikr-mulohazalar sohaning xorij olimlaridan M.A.Rogov, L.N.Tepman, A.S.Shapkin, L.E.Basovskiy, V.M.Mishin, I.M.Lifits, V.M.Klevleev, A.V.Raychenko, M.I.Knish, V.V.Puchkov, Yu.P.Tyutikov, D.Yermax, R.Lazer, D.Lorsh, K.Meyr, P.Milgrom, B.Meyn, D.Seyler, D.Sellivan, D.Tobin, M.Xessel, D.Charxem, A.Shleyfer kabilar asarlarida targ`ib etilgan jihatlari atroficha o,,rganilgan. Bitiruv malakaviy ishi mavzusini boyitish maqsadida M.Sh.Sharifxo'jaev, G`Hojahmedov, I.Yaxyayeva, M.Umarova, A.Usmonov, G`H.Hojiahmedov, I.K.Yaxyayeva, M.N.Umarova, A.A.Usmonov, D.Suyunov, M.B.Xamidulin, K.Tolipov, M.Bo,,taboev, Sh.Boboxo'jaev, A.Obidov, D.S.Kosimova kabilarning ilmiy izlanishlari va o'quv adabiyotlaridan samarali foydalanilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning korxonalarni strategik boshqarish masalalari bo'yicha izlanishlari, olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'naliishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Mavzuni o'rganish jarayonida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda ma'lumotlarni tizimlash bo'yicha maxsus yondashuvlar, ya'ni taqqoslash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlil kabi usullar qo'llanilgan.

⁷¹ Абчук В.А. Теория риска. — Л.: —Судостроение, 1983., Гранатуров В.М. Экономический риск: сущность, методы измерения, пути снижения. — М.: —Дело и сервис, 1999., Дубров А.М., Лагоша Б.А., Хрусталев Е.Ю. Моделирование рисковых ситуаций в экономике и бизнесе. — М.: —Финансы и статистика, 1999. Лапуста М.Г., Шаршукова Л.Г. Риски в предпринимательской деятельности. — М.: —ИНФРА-М, 1998. Райс Т., Койли Б. Финансовые инвестиции и риск / Пер. с англ. — Киев: Торгово-издат. бюро ВНУ, 1995.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy tajribasidan ma'lumki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarni rivojlantirmasdan va ularning iqtisodiy barqarorligini ta'minlamasdan turib, yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning barqaror o'sishiga, mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy hayotida chuqur tarkibiy o'zgarishlar va sifat siljishlarni yuzaga keltirish, makroiqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, shuningdek ko'p ukladli iqtisodiyot va kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirib bo'lmaydi⁷². imkoniyatlarini oshirish va ularning natijasida mamlakat to'lov balansining ijobiyligini va milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash; monopoliyaga qarshi kurashish va mamlakatda raqobat muhitini yuzaga keltirish; xo'jalik aloqalarini har tomonlama rivojlantirish kabi vazifalarni hal eta olamiz⁷³.

NATIJALAR

Bizning fikrimizcha risk - bu korxonaning xavf-xatar bilan bog'liq noaniqlik muhitida faoliyat olib borishi va iqtisodiy sub'ektga bog'liq va bog'liq bo'lmagan jarayonlarning sabab va oqibati beradigan natija ko'zlangan rejani amalga oshirish yoki oshira olmaslik va foyda yoxud zarar kabi ehtimoliy natijalarni beradigan ob'ektiv iqtisodiy kategoriya deb qarash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Risk boshqaruv bilan bevosita bog'liq bo'lib, qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarining samaradorligi va asoslanganligi bilan bevosita bog'likdir. Birorbir menejer o'z faoliyatida riskni to'liq bartaraf yetish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun, har qanday menejer va tadbirkor u yoki bu ishni boshlashda har doim tavakkal qilgan holda muayyan darajada riskka uchraydi⁷⁴.

Tadqiqot shuni ko'rsatmoqdaki ishlab chiqarish korxonasida risklarni boshqarishnинш ташкилий-иқтисодий меканизмларини таомиллашда аввало risklarni boshqarishning ташкилий-иқтисодий меканизмининг тамошлари ва ташкилий-иқтисодий меканизмларини турларга ажратиб олиш лозим.

⁷² Ашурев М. С., Шакирова Ю. С., Турдибеков О. И. Тенденции формирования многоукладной экономики в Узбекистане // Бюллетень науки и практики, 2019. №12 (5). С.305-311.

⁷³ Курпаяниди К. И., . Ўзбекистонда тадбиркорлик мухитининг замонавий ҳолати ва уни самарали ривожлантириш муаммоларини баҳолаш. GlobeEdit Academic Publishing, European Union, 2019. 214 б.

⁷⁴ Абдуллаев Ё, Бобоқулов Кредит: 100 саволга 100 жавоб.- Т.: «Мехнат», 1996 й. 80 бет.

Risklarni boshqarishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmining tamoyillari

Ishlab chiqarish korxonalarida risklarni boshqarishining tashkiliy iqtisodiy mexanizmining tamoyillari

1. Samaradorlik;
2. Tejamkorlik;
3. Boshqaruvnin va uning ta'sirchanligi;
4. Iqtisodiy-ijtimoiy rag'batlantirish;
5. Mablag'lardan samarali foydalanish:

Iqtisodiy mexanizm

Tashkiliy mexanizm

Resurslar, kredit, valyuta kursi, bozor muvozanati, talab, xarajatlar, investitsiyalar, sug'urta, soliq, eksport-import.

Rejalashtirish, maqsad, boshqaruv ko'lami, karlar malakasi, texnologiya, axborotlashtirish, ishlab chiqarishni boshqarish, prognozlash, siyosiy vaziyat, davlat tayanchi, qonun va qonun osti xujjatlar.

1-rasm. Ishlab chiqarish korxonalarida risklarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini tizimlashtirish tartibi⁷⁵

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o'rnida aytish kerakki ishlab chiqarish korxonalarida risklarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishda boshqaruv sub'ekti asosida boshqaruv obyektiga ta'sir ko'rsatish orqali boshqaruvning kopmeks jarayonlari asosida ijobiy natijaga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

⁷⁵ Manbabalarga asoslanib muallif tomonidan ishlab chiqildi

1. Абчук В.А. Теория риска. — Л.: Судостроение, 1983., Гранатуров В.М. Экономический риск: сущность, методы измерения, пути снижения. — М.: Дело и сервис, 1999., Дубров А.М., Лагоша Б.А., Хрусталев Е.Ю. Моделирование рисковых ситуаций в экономике и бизнесе. — М.: Финансы и статистика, 1999. Лапуста М.Г., Шаршукова Л.Г. Риски в предпринимательской деятельности. — М.: ИНФРА-М, 1998. Райс Т., Койли Б. Финансовые инвестиции и риск / Пер. с англ. — Киев: Торгово-издат. бюро ВНУ, 1995.
2. Ашурев М. С., Шакирова Ю. С., Турдибеков О. И. Тенденции формирования многоукладной экономики в Узбекистане // Бюллентень науки и практики, 2019. №12 (5). С.305-311.
3. Курпаяниди К. И., . Ўзбекистонда тадбиркорлик муҳитининг замонавий ҳолати ва уни самарали ривожлантириш муаммоларини баҳолаш. GlobeEdit Academic Publishing, European Union, 2019. 214 б.
4. Абдуллаев Ё, Бобоқулов Кредит: 100 саволга 100 жавоб.- Т.: «Меҳнат», 1996 й. 80 бет.
5. Махкамова М.А., Юлдашева С.А., Холматова Ш.Р., Шмигун О.: (2007) Менежмент/ ўкув қўл. / Т.: Шарқ, 50-Б.
6. Чернов В.А. Анализ коммерческого риска. — М.: Финансы и статистика, 1998.